

MAKTABDAGI YUQORI SINIF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILIDAGI NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Abduraimova Dinara

Termiz iqtisodiyot servis universiteti

1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab yoshidagi o‘quvchilarning ingliz tilidagi gapirish mahoratini yanada rivojlantirish va ingliz tilidagi bilim darajasini oshirish usullari va uslublari haqida gap olib boriladi.

Kalit so‘zlar: Skype, pronunciation pod, American English pronunciation podcastlar, suhbatdosh, nutq, ingliz tili, talaffuz,

Аннотация: В данной статье говорится о путях и методах дальнейшего развития англоязычных навыков школьников и повышения уровня знаний английского.

Ключевые слова : Skype, модуль произношения, подкасты по произношению в американском английском, интервьюер, речь, английский, произношение.

Annotation: This article talks about ways and methods to further develop English speaking skills of school-aged students and increase the level of knowledge in English.

Key words: Skype, pronunciation pod, American English pronunciation, podcasts, talker, speech, English, pronunciation.

Kirish: Hammamiz yaxshi bilamizki, deyarli barcha ingliz tili o‘rganuvchilarida eng ko‘p uchraydigan va har doim muammo bo‘lib keladigan narsa bu ingliz tilidagi nutqining no‘noqligidir. Bu muammoni yagona yechimi esa faqatgina ko‘proq o‘z ustida ishlash va ko‘proq ingliz tilida muloqatda bo‘lishdir. Shu bilan birgalikda, ingliz tilidagi nutqini yanada ravon qilishning yana bir necha usullari bor. Bular esa American English podcastlarini ko‘proq ko‘rish va ulardagi speakerlarning nutqini diqqat bilan tinglash va ko‘proq kundalik hayotda ham chet tilida gaplashishdir. Ingliz tilida biz uchun talaffuzi murakkab bo‘lgan so‘zlarning tallafuzini o‘rganish zarur.

Shaxsan men o‘zimdanda misol qilib gapiradigan bo‘lsam, bizga 5-sinfda ingliz tili fanlarimiz ro‘yxatiga kirib, fan sifatida dars o‘tila boshlagan. Shuning uchunmi men boshida rossa qiynalganman. Ingliz tilida ravon gapirish naryoqda tursin, hatto tuzuk o‘qiy olmaganmiz. Nutqimizni rivojlantirish uchun birinchi bo‘lib, kichik bo‘g‘inli oson va qisqa so‘zlarni keyin esa murakkab so‘zlarni yod oldik. So‘ngra so‘z birikmalari va frazali fe‘llarni o‘rgandik. Shuningdek, inglizcha videolar, multfilmlarni ko‘proq ko‘rish va inglizcha she‘r va qo‘shiqlarni yodlash ham o‘quvchining nutqini o‘stirishga katta yordam berar ekan. Shu bilan birgalikda ingliz jurnalitslarining va

speakerlarining podcastlarini eshitish ham mening nutqimdagi xatolarimni to‘g‘irlashimga va talaffuzimni o‘stirishimga katta tirgak bo‘ldi desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

INGLIZ TILIDAGI NUTQINI OSHIRISH USULLARI

So‘zlashuv klublariga a‘zo bo‘lish

Menimcha hozir hamma ingliz tili o‘rganuvchilari qo‘shimcha kurslarga boradi va deyarli barcha kurslarda qo‘shimcha klublar tashkil etilgan. Bu klublarda asosan o‘quvchilarning nutqini o‘stirish maqsadida turli xil mavzularda bahs-munozaralar va suhbatlar o‘tkaziladi. Bu esa bolarning nutqini ravon bo‘lishiga yordam beradi.

American English podcastlar tinglash

Bu uslubda ,biron bir chet ellik speakerning podcastlarini you tube ilovasi orqali ko‘rib ularni nutqini kuzatib o‘zimizning talaffuzimizdagi xatolarimiz ustida ishlaymiz.

Juftlikda ishlash

Bunda esa maktabdagi sinfdoshimiz yoki bo‘lmasam ,chet tili kursidagi do‘stimiz bilan har kuni bittadan mavzu tanlab bahs-munozara qilsak ham bo‘ladi. Bu orqali esa erkin fikrlashni va erkin nutq so‘zlay olishni o‘rganamiz.

Skype orqali chet ellik suhbatdosh do‘st orttirish

Bu ilova juda ham yaxshi natija beradi desam adashmagan bo‘laman. Chunki bu ilovani o‘rnatib, speaking24.com saytiga kirib biron bir chet ellik bilan do‘st tutinib ,u bilan xohlagan paytingiz suhbat qurolasiz. Bu esa haqiqiy native speakerlarning nutqini o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, ingliz tilida ravon va erkin gapirish uchun juda ham ko‘p imkoniyatlar bor. Faqatgina ulardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish kerak xolos. Yuqorida aytib o‘tilgan saytlardan yoki usullardan birontasini amalda foydalanib ko‘ring albatta natijasini sezasiz. Chunki men o‘zim maktabda o‘qituvchilik qilaman va bu usullardan ko‘p ingliz tili nutqida kamchiligi ko‘p va ravon gapira olmaydigan o‘quvchilarimga tavsiya qilganman . So‘ngra esa hammasi yaxshi natijaga erishganini aytishgan. Shunday ekan har bir ingliz tilida erkin va ravon gapira olmaydigan har bir chet tili o‘rganuvchisiga maslahat beraman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J. Jalolov. Chet tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent 2012.
2. <https://hasanboy.uz> .speakingni o‘stirish
3. Y. R. Raxmonova, D. N. Razzoqova. ”Pedagogik texnologiyalar” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent 2007.